

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**  
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

*70411101 – Jahon iqtisodiyoti magistratura mutaxassisligining*

*MALAKA TALABI*

**Toshkent - 2024**

OLY TA'LIM VAZIRLIGI  
Buyruq № 277  
2024 yil " 01 " 08

**ISHLAB CHIQILGAN:**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining

2024-yil “01” 08\_\_\_\_\_dagi 277-sonli buyrug‘i bilan

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’lim davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’lim davlat standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

**MUNDARIJA**

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
<b>1.</b>	<b><i>Umumiy tavsifi</i>.....</b>	<b>4</b>
1.1	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatlarining sohalari .....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari .....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari.....	4
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompensiyalariga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>6</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....</b>	<b>6</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi.....</b>	<b>7</b>
	<b>Bibliografik ma'lumotlar.....</b>	<b>8</b>
	<b>Kelishuv varag'i.....</b>	<b>9</b>

## 1. Umumiy tavsifi

*70411101-Jahon iqtisodiyoti magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlash kunduzgi ta'lim shaklida amalga oshiriladi. Mutaxassislik bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Magistratura dasturining me'yoriy muddati 1 yil.*

### 1.1. Qo'llanish sohasi

#### 1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi

Malaka talabi 70411101-Jahon iqtisodiyoti magistratura mutaxassisligi bo'yicha magistrlar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim tashkilotlari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### 1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur magistratura mutaxassisligi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv-uslubiy bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

mutaxassisliklarning o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

magistratura bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiyasi komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari hamda ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim tashkilotlariga o'qishga kirayotgan bakalavriat bitiruvchilari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### 1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi

#### 1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari:

**70411101-Jahon iqtisodiyoti magistratura mutaxassisligi** – Barcha ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid fanlarni o'qitish; O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, ilmiy tadqiqot markazlari, loyihalash institutlari, ilmiy ishlab chiqarish birlashmalarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish; O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligida, O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligida, O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankda, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi makroiqtisodiy va hududiy tadqiqotlar institutida, ilmiy tadqiqot markazlarida, davlat boshqaruvi organlarida, tashqi iqtisodiy faoliyat ko'rsatuvchi turli mulkchilik shaklida faoliyat ko'rsatuvchi qo'shma korxonalarda, tijorat banklarda, tashkilot va korxonalarda jahon iqtisodiyotining mintaqalariga oid kompleks masalalarni yechishni qamrab oladi.

#### 1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari:

O'zbekistonning xalqaro tashkilotlar va integratsion birlashmalardagi vakolatxonalarini, xorijiy mamlakatlardagi O'zbekiston elchixonalarining iqtisodiy masalalar bilan shug'ullanadigan tuzilmalari, O'zbekiston Respublikasining xorijiy mamlakatlardagi vakolatxonalarini, savdo-investitsiya va savdo uylari, O'zbekiston Respublikasi investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi va uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahridagi hududiy bo'limlari, aksiyadorlik kompaniyalari, tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi davlat va nodavlat tashkilotlari, xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi qo'shma korxonalar va tashkilotlar.

#### 1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*

- oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyat (o'rnatilgan tartibda);

- konsalting xizmati

Mutaxassislik bo'yicha tayyorlangan magistrlar kasbiy faoliyatlarining muayyan turlari ta'lim jarayonining manfaatdor ishtirokchilari bilan hamkorlikda oliy ta'lim muassasasi tomonidan aniqlanadi.

#### **1.2.4. Kasbiy vazifalari:**

**70411101-Jahon iqtisodiyoti** Milliy malaka ramkasining 7-malaka darajasi hamda magistr kasbiy faoliyatining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq magistratura bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

##### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

mutaxassislikka mos yangi ilmiy natijalar, ilmiy adabiyotlar yoki ilmiy tadqiqot loyihalarini tahlil qilishi;

ilmiy-texnikaviy hisobotlar va tushuntirish xatlarini ishlab chiqish;

o'tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo'yicha ilmiy sharhlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalarni tuzish;

ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar ishida ishtirok etish;

ilmiy mavzularga mos jurnallarga maqolalar tayyorlashi.

##### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

e-learning va m-learning texnologiyalari asosida korporativ o'qitishni tashkil qilish va korporativ ma'lumotlar bazasini rivojlantirish;

ishlab chiqarish faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

ishlab chiqarish jarayonlarini samarali amalga oshirish uchun zarur bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari va resurslarini rejalashtirish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ularning ekspluatatsiyasi bilan bog'liq bo'lgan ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari va mexanizmlarini ishlab chiqish;

atrof-muhitni muhofaza qilish va mehnat xavfsizligi talablariga mos kelishi borasida ishlab chiqarish jarayonlarini nazorat qilishda ishtirok etish.

**Oliy, malaka oshirish va qayta tayyorlash ta'lim muassasalarida ilmiy-pedagogik hamda o'rta maxsus ta'lim muassasalarida pedagogik faoliyatda (o'rnatilgan tartibda):**

o'quv fanlarini o'qitish metodikasini egallash;

elektron o'qitish usullarini egallash;

oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimining ta'lim muassasalarida mutaxassislikka oid tayyorgarlik yo'nalishida nazarda tutilgan o'quv fanlari bo'yicha nazariy, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini o'tkazish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib nostandart o'quv mashg'ulotlarini o'tkazish;

o'qitilayotgan fanlar bo'yicha darslarni o'tkazish uchun zarur bo'lgan o'quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o'qitilayotgan fan bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni o'tkazish uchun o'qitishning texnik vositalaridan foydalanish;

mustaqil ta'lim va ijodiy qidiruv natijasida o'qitilayotgan fan hamda pedagogik faoliyat sohasidagi turli usullar, vositalar va boshqa sohalarda o'z-o'zini muntazam takomillashtirib borish;

uzluksiz ta'lim tizimining DTS, Davlat talablari va boshqa o'quv-me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish.

##### **Konsalting xizmati faoliyatida:**

mutaxassislik bo'yicha jahon iqtisodiyoti sohasida mavjud holatning taxlilii, analitik sharhini ishlab chiqish;

jahon iqtisodiyoti va xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimlari magistr tayyorlash ixtisosligiga mos bo'lgan mavzulardagi loyihalarni ekspertiza qilish bo'yicha ekspert guruhlarida ishtirokchi sifatida qatnashish;

tayyorgarlik ixtisosligiga mos mavzu bo'yicha konsalting xizmatlarini ko'rsatish;  
kasbiy etika tamoyillariga rioya qilish qobiliyatlariga ega bo'lishi lozim.

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

Davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushuntirishi, tabiiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

iqtisodiy kategoriya va qonunlar, iqtisodiy jarayon va hodisalar mohiyatini tushuntirish, iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish mexanizmlarini bilish;

mikroiqtisodiyotning asosiy kategoriyalari, makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ularni hisoblash orqali pul-kredit, budjet-soliq va tashqi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yuzasidan ko'nikmalarini shakllantirishi;

menejment asoslarini bilishi, funksiya, usul va tamoyillarini chuqur o'rganishi qarorlarni qabul qilish va ularni ijrosini nazoratini olib borishi, bozor va unga xos qonunlar va xatarlarni, raqobat muhitini tahlil qilish va baholash ko'nikmalariga ega bo'lish;

iqtisodiy obyektlar va jarayonlarning miqdoriy o'zaro bog'liqligini matematik va statistik metodlar hamda modellar yordamida o'rganish;

biznes jarayonlarini modellashtirish, biznes yuritishning iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi biznes modellarini shakllantirishni bilish;

iqtisodiyot subyektlarini moliyaviy holatini tahlil qilish hamda moliyaviy ko'rsatkichlarini aniqlash;

xalqaro hisob-kitob shakllari va xalqaro moliya institutlari faoliyatining asosiy yo'nalishlarini bilishi;

bank ishining nazariy, amaliy asoslarini bilish, bank faoliyatini tashkil etish va tartibga solish, resurslarni jalb etish va ularni joylashtirishi;

iqtisodiy integratsiyaning asosiy yo'nalishlarini nazariy va amaliy jihatlarini bilishi.

## **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar**

Ilmiy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli itmiy-tadqiqot va amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyot o'tkaziladi:

1. Ilmiy-pedagogik ish va malaka amaliyoti
2. Ilmiy tadqiqot ishi va magistrlik dissertatsiyasini tayyorlash.

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch so'zlar:**

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat jabhasi, magistraturaning asosiy ta'lim dasturi (magistratura dasturi), profil, o'qib-o'rganish natijalari, o'quv davri, jahon mintaqalari iqtisodiyoti, iqtisodiy o'sish modellari, erkin iqtisodiy hududlar, savdo hududlar, texnoparklar, offshor hududlar, innovatsion iqtisodiyot, geoiqtisodiyot, strategik maqsadlar, geoiqtisodiy texnologiyalar, iqtisodiy xavfsizlik, iqtisodiy diplomatiya, iqtisodiy xavfsizlik vositalari, iqtisodiy xavfsizlik monitoringi, iqtisodiy tizimlar, iqtisodiy tizimning asosiy institutlari, jahon xo'jaligida integratsiyaning xususiyatlari va muammolari, xususiylashtirish siyosatining sabablari va samaradorligi.



## KELISHUV VARAG‘I

### ISHLAB CHIQILGAN:

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Rektor  S. Safoyev

2024-yil « 5 » 06

M.O‘.

### KELISHILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi  
Tashqi ishlar vazirligi

Vazirning birinchi o‘rinbosari

 B.J. A'loyev

2024-yil « 6 » 06

M.O‘.


O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta‘limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor  M. Boltabayev

2024-yil « 8 » 06

M.O‘.

O‘zbekiston Respublikasi  
Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirligi

Vazir o‘rinbosari v.b.  Sh. Gulamov

2024-yil « 7 » 06

M.O‘.

Toshkent davlat iqtisodiyot  
universiteti

Rektor  T. Teshabayev

2024-yil « 7 » 06

M.O‘.



## KELISHUV DALOLATNOMASI

Toshkent sh.

“ 8 ” 06 2024-yil

Biz quyida imzo qo'yuvchilar Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti hamda Tashqi ishlar vazirligi "Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari Klassifikatori"ga muvofiq 70411101 – Jahon iqtisodiyoti va 70411102 – Tashqi iqtisodiy faoliyat magistratura mutaxassisliklari malaka talablari ishlab chiqilganligi haqida axborot berilib, ularni muhokama qilish hamda ushbu ishlab chiqilgan malaka talablari mazmuni bilan tanishtirib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

**70411101 – Jahon iqtisodiyoti**

**70411102 – Tashqi iqtisodiy faoliyat**

magistratura mutaxassisliklarining malaka talablarini ishlab chiqishda kadrlar iste'molchilari bo'lgan O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan qo'yilgan talablar inobatga olingan.

Shuningdek, malaka talablarini ishlab chiqilishida: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5847-sonli Farmoni, 2022-yil 23-iyuldagi "Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti faoliyatini tizimli isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-330-son hamda 2019-yil 1-iyuldagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimiga boshqaruvning yangi tamoyillarini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4358-sonli qarorlarida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 7-iyundagi "Davlat ta'lim muassasalari hamda nodavlat ta'lim tashkilotlarini attestatsiyadan va davlat akkreditatsiyasidan o'tkazish tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi 470-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining 2020-yil 9-yanvardagi RA1/1-20-sonli topshirig'i, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2020-yil 30-iyundagi "2020/2021 o'quv yilidan kredit-modul tizimiga o'tish to'g'risida"gi 357-son buyrug'i, UNESCO tomonidan joriy etilgan "Ta'limning xalqaro standart klassifikatsiyasi" (TXSK 2011) va TXSK: Ta'lim va kasbiy tayyorlash sohalari" (TXSK-S 2013), hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 19-oktabrdagi "Oliy ta'limning davlat ta'lim standarti. Asosiy qoidalar" O'zbekiston Respublikasining davlat standartini tasdiqlash to'g'risida"gi 35-2021-sonli buyrug'ida belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlash

hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ-huquqiy hujjatlarga asoslanib, shu bilan birga xalqaro tajribalarga muvofiq ishlab chiqilgan.

Yuqoridagi magistratura mutaxassisliklari bo'yicha tayyorlangan malaka talablari va o'quv rejalarini ishlab chiqish asosiy kadrlar iste'molchilari bo'lgan vazirliklar, idoralar va boshqa korxonalar mutaxassislari tomonidan muhokamadan o'tkazilib kelishildi.

Yuqoridagi mutaxassisliklar bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablarini o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etilishi maqsadga muvofiq.

**S.S.Safoyev**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti rektori

(imzo)

M.O.

**B.J.A'loyev**

O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirining birinchi o'rinbosari

(imzo)

M.O.

**Sh.Gulamov**

O'zbekiston Respublikasi Investitsiyalar, sanoat va savdo vazirining o'rinbosari v.b.

(imzo)

M.O.